O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI SHAROF RASHIDOV TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr 110-3-46-Q/21 Sharof Rashidov tuman hokimligi

Sharof Rashidov tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida sun’iy yo‘l notekisliklarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-maydagi “2018-2022 - yillarda O‘zbekiston Respublikasida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasi” to‘g‘risidagi 377-sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda 2018-2019 - yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da harakat xavfsizligini takomillashtirish va yo‘l-transport hodisalarining oldini olish bo‘yicha topshiriqlar belgilab berilgan va 2019-yil 9-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarorining ijrosini ta’minlash bo‘yicha Sharof Rashidov tumani ichki ishlar bo‘limining taklifini inobatga olib, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Sharof Rashidov tumani ichki ishlar bo‘limining taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Tuman hududidagi davlat, mahalliy va ichki xo‘jalik yo‘llarida yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalari, o‘quv muassasalari, aholi yashash punktlari va ichki yo‘llarda yo‘l sharoitidan kelib chiqqan holda ilovaga muvofiq sun’iy yo‘l notekisliklari tashkil etilsin.

3. Bunda Yevroosiyo davlatlarining davlat me’yori GOSTR 52605-2006 ga asosan mahalliy ahamiyatga ega avtomobil yo‘llari va ichki ko‘chalarga, o‘quv muassasalari, maktabgacha ta’lim muassasalari oldiga kengligini 40 sm.dan, balandligini 7 santimetrdan oshirmasdan, yo‘l qatnov qismi kengligida tashkil etishga alohida e’tibor qaratilsin.

4. Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (O.Toshpo‘latov) va tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (A.Safarov) mahalla fuqarolar yig‘ini raislari bilan birgalikda sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

5. Mazkur qaror “Jizzax tongi.uz” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari N.Imomqulov va tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i O‘.Asqarov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **M.Xolbutayev**